

MERONIMLARNING TEMATIK TASNIFFLASH MASALALARI

Rahmonova Surayyo Ne'matovna

Boysun tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi xodimi

ВОПРОСЫ ТЕМАТИЧЕСКОЙ КЛАССИФИКАЦИИ МЕРОНИМА

Рахмонова Сурайё Нематовна

Сотрудник отдела дошкольного и школьного образования

Байсунского района

ISSUES OF THEMATIC CLASSIFICATION OF MERONYM

Rahmonova Surayyo Nematovna

**Boysun district pre-school and school education department
employee**



Tel: +998975325255

E-mail:

[Surayyorahmonova80
@gmail.com](mailto:Surayyorahmonova80@gmail.com)

Orcid: 0009-0003-3828-3712

Annotatsiya: Ushbu maqolada meronimlar borasidagi qarashlar, ularni tematik klassifikatsiya qilish masalalari hamda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan meronimlarning tematik tasniflanishi borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: meronym, partonim, tematik tasniflanish, turli tematik guruhga mansub meronimlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются взгляды на меронимы, вопросы их тематической классификации, а также тематическая классификация меронимов, перечисленных в «Толковом словаре узбекского языка».

Ключевые слова: мероним, партоним, тематическая классификация, меронимы, принадлежащие к разным тематическим группам.

Annotation: This article discusses views on meronyms, issues of their thematic classification, and thematic classification of meronyms listed in the “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language”.

Keywords: meronym, partonym, thematic classification, meronyms belonging to different thematic groups.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bizga ma'lumki, meronimlar tadqiqoti yangi yo'nalish hisoblanib, bugungi kunda qator bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. Turli tillarda meronimlar tasnifini tahlil etar ekanmiz ular borasidagi ma'lumotlar bir-birini takrorlamaydi. Bugungi kunda meronym (partonimlar) turli xususiyatlarga ko'ra tahlil etilmoqda. Jumladan, professor M.V.Nikitin fikricha meronimik munosabatlar lug‘atning semantik tartiblanishining eng muhim omili bo‘lib, shu tufayli u yaxlit ierarxik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi: “Ko‘rinib turibdiki, qism-butun munosabatlari pastdan yuqoriga, mikrodan makrokosmosgacha, elementar zarrachalardan galaktikalargacha butun dunyoni qamrab oladi. Ular murakkablik kasb etgan barcha

darajadagi narsalarni qamrab oladi, ularni qismlarning xilma-xil ko‘p bosqichli ierarxiyalariqayaxlitliklartiga, tizimlar elementlariga ajratadi. Bu munosabatlar narsalarning o‘ziga xos xususiyatlarining umumiyligi natijasida hosil bo‘lgan turli xil ko‘p bosqichli ierarxiyalalar kabi universal va globaldir [1;760].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Meronimlarning turli xususiyatlariga ko‘ra turlicha tasniflanadi. Ko‘pincha holo-partitiv, ya’ni butun-qism munosabatlarning tasnifi obyektiv voqelikdagi butun va uning qismlarining mantiqiy bog’liqligini va dunyoning lingvistik manzarasini hisobga olgan holda quriladi. E.V.Materskayaning meronimlarni tematik tasnifini inobatga olgan holda

quyidagi meronimlar ushbu tillardan o'zlashtirilganligining guvohi bo'lamiz: avj (arabcha) –jarayon qismini anglatadi. Ajal-vaqt bilan bog'liq birlik, asr-tushdan keying vaqt, ba'da-keyin, oxiri kabi.

Yana bir tilshunos olim D.A.Kuz partonimlarni holonimlarga nisbatan zarurligi yoki ixtiyoriyligiga ko'ra quyidagi qismlarga ajratadi: muzlatgich-oshxona, kanonimik qismlar bo'lmish barmoq-qo'l munosabatlari. Mahsulotlarni tayyorlashga xizmat qiluvchi partonimlar: uzum-sharob; komponentlar uchun eng so'nggi bosqichda kerak bo'lувчи moddalar: alkogol-vino kabi [2;38].

Chet el tilshunoslarning fikrlarini rivojlantirib, Yu.M.Rusina meronimlarni vazifasi, foydalanish maqsadi, mahalliylik, vaqt bilan aloqadorlik, baholash darajasi, umumiyl tuzilishi va xususiyatiga ko'ra, kelib chiqishiga ko'ra, shaxsning idrok etish darajasiga ko'ra tasniflanishi lozimligini ta'kidlaydi. E.V.Materskaya esa ushbu tasnifga ko'ra meronimlarni tematik tasnifini ishlab chiqdi. Ular quyidagilar:

1. Somatizmlar: qulq, panja
2. Tirik tabiat bilan bog'liq meronimlar: shox (daraxt shoxi)
3. Jonsiz tabiat qismlarining nomlari: sohil
4. Artefakt qismlarining nomlari: tutqich (kosa), oyoq (stul), qanot (samolyot)
5. Agregat qismlarining nomlari: delegat
6. Qism tushunchasining belgilanishi: parcha
7. Miqdorni bildiruvchi birliklar: uchinchi, chorak
8. O'rindoshlik kasb etuvchi leksemalar: uch (barmoq, til)
9. Vaqt bilan bog'liq birliklar: tushdan bir soat oldin
10. Jarayon qismlari: yakuniy bosqich, yakunlash (bosqich sifatida) [3;403].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Meronim holonim munosabati turli jarayonlar bilan aloqadorligini ko'rib chiqdik. Ularni avtomobil qismlaridan foydalanib tasniflagan olim A.S.Shelli ularning quyidagi turlarini aniqlaydi:

1. Konfiguratsion jarayon. Butun va qism o'rtasidagi tizimli va vazifaviy aloqaning mavjudligi: dvigatel va sisternalar, avtomobil va torpedo. Bu jarayon pirog va uning bo'lagi bilan bog'liq emas.
2. Inkapsulangan: butun va qism munosabati tashqi tomondan sezilmasada, ular o'rtasida ichki

bog'lanishning mavjudligi: dvigatel va avtomobil.

3. O'zgartirilishi mumkin bo'lgan butunning qismi: shinalar-avtomobil. Bu jarayon inson va uning miyasi bilan bog'liq emas.
4. Vazifaviy xususiyatlariga ko'ra: dvigatellar funksional vazifasiga ko'ra avtomobillar bilan bog'langan.
5. Butun va qism o'rtasidagi o'xshashlikka ko'ra: avtomobil va avtomobilning tortish moslamasi o'rtasidagi munosabat.
6. Bir jinsli-qismni ko'rib chiqilayotgan jihatni bo'yicha butunning boshqa qismi (qismlari) bilan solishtirishi mumkin. Shinalar-avtomobil.
7. Integral-qismni buzilmasdan turib uni butundan olib tashlash mumkin emas. Shassi-avtomobil. Ammo, avtomobilning qopqog'i uning ajralmas qismi emas.
8. Butunning to'liqligini ta'minlashga xizmat qiluvchi kanonik zarur qism: orqa ko'zgu-avtomobil;
9. Butundan yechib tashlanishi mumkin bo'lgan qism: avtomobilning orqa qismi-avtomobil;
10. Segmental-qism bo'linish natijasidir (matematik bo'lmagan ma'noda) va kosmosdagi yagona butunlikni ifodalaydi. Snina avtomobilning segmental qismlidir.

11. Ajraladigan qism butundan ajratilishi mumkin va butundan mustaqil ravishda mavjud bo'lishi mumkin (varaq-qog'oz);

Qismning bir vaqtning o'zida bir nechta butunga tegishli bo'lishi: insonning bir qancha ijtimoiy guruhlarga mansub bo'lishi mumkin, ammo g'ildiraklar bir vaqtning o'zida bir nechta avtomobilning qismlari bo'la olmaydi [5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Meronimlar tasnifini yanada kengroq yoritish maqsadida biz ularni izohli lug'atlar, jumladan, besh jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'rib chiqishni ma'qul deb topdik. Va ularni quyidagi mavzuiy guruhlarda tasniflashni afzal ko'rdik.

Rangni ifodalovchi meronym (partonimlar)

1. Ablaq – ola-bula, oq-qora. Chipor, chavkar ot tusi haqida. Balg'ami-och yashil va ko'kish oralig'idagi rang.

Liboslarni ifodalovchi meronim (partonimlar):

1. Abo-choponga o'xshash jun kiyim. Avrasi jun yoki boshqa matodan tikilgan uzun, keng, yengi kalta erkaklar ust kiyimi. Shayboniyxon boshiga

- qizil bo'rk ustidan salsa o'ragan, ko'k movutdan abo kiygan [4;319].
2. Avra-astar. Kiyim, ko'rpa, ko'rpacha kabi narsalarning tashqi tarafi. To'nning avrasi. *To'shak avraga olti metr qizil duxoba olib bermasangiz uyat bo'ladi.*
- Tabiat, borliq bilan bog'liq so'zlar:**
1. Abr-bulut. *Abr ichiga berkinib motamsaro bo 'lsin quyosh.* O'zbek tilining izohli lug'atida bulutlarning bir qancha turlari haqida so'zlab o'tilgan: *abri nayson*-bahorgi seryomg'ir bulut, *abri navbahor* - erta bahorning yomg'irli buluti, *abri balo* - ofat buluti.
- Millatga mansub meronimlar (partonimlar)**
Abxzalar, Avarlar, Arablar, Arman, Afg'on, Beluj, Belgiyalik, Belorus, Bengal, Boshqird.
- Qarindoshchilikni ifodalovchi partonimlar:**
Avag'a (chevara), aya, ada, amma, bobo, boja, buva, buvak, buvi,
- Odam tanasi a'zosi bilan bog'liq meronym (partonim)lar:** asab, a'zo, badan, barmoq, bachardon, bashara, baqay-to'piq suyagi, baqbaqa, bag'ir, bebilchak-oyoq yuzining do'ng joyi, bez (qalqonsimon bez), bel:1.Orqa suyakning pastki qismi, 2.Gavdaning ko'krak qafasi va bo'ksa o'rtasidagi eng xipcha qismi, bilak, biqin, bod-shish (inson tanasiga vaqtinchalik meronym bo'la oladigan leksika), boylam-cho'ziluvchan to'qima,
- Kiyim-kechak qismlari bilan bog'liq meronimlar:** baloq-pocha, bandak-paranjining ikkita soxta yengi, baxya-kiyim-kechak qirg'og'i,
- Asbob-uskuna qismlari bilan bog'liq meronimlar:** band-sop, tutqich, dasta, baqa.
- O'simlik qismlari bilan bog'liq meronimlar:** band - o'simlik mevasining novda yoki palakka birikadigan qismi, bix - o'simlik ildizi.
- Obyektlar jamlanmasi bilan bog'liq meronimlar:** xom ashyo.
- Inshoot qismlari bilan bog'liq meronimlar:** baza, balkon, basseyn, bashnya, bolor-to'sin, ustun, bolaxona, bostirma.
- Transport vositalari qismlarini bildiruvchi meronimlar:** bagajnik, balansir-shayin, tarozi, ballon, bandaj-mashina detallari chidamliliginini ta'minlovchi metal xalqa, baraban-silindr shaklidagi kovak qism, bolt.
- Lingvistik terminlar bilan bog'liq meronimlar:** aruz, atama, afsona, bayt, band, bahr, beshlik.
- Hayvonot olamiga tegishli meronimlar:** barra - qo'zichoqning junli terisi, bachardon, baqaloq.
- Uy jihozlariga tegishli meronimlar:** bolish - divanning suyanadigan qismi.
- XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, o'zbek tili lug'at qatlami turli tillardan o'zlashgan so'zlar hamda o'z ichki imkoniyatlari asosida shakllangan so'zları hisobiga boyitilgan bo'lib, ushbu so'zlar tarkibida meronym (partonim) so'zlar ham katta qismni tashkil etadi. Va bu meronimlar butun va qism o'rtasidagi vazifaviylikka, ular o'rtasidagi o'xshashlikka ko'ra, butunning to'liqligini ta'minlashga xizmat qiluvchi kanonik zarur qismni talab etishiga ko'ra bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.
- ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**
1. Никитин М.Б. Курс лингвистической семантики: учебное пособие для студентов, аспирантов и преподавателей лингвистических дисциплин в школах, лицеях, колледжах и вузах. СПб.: Научный центр проблем диалога, 1996. 760 стр.
 2. Cruse D.A. On the transitivity of the part-whole relation / Alan Cruse//Journal of linguistics. - 1979. –Vol. 15/1/-P.29-38.
 3. Материнская Е.В. Система меронимов в немецком и английском языках: дисс.докт.фил.наук: 10.02.04. Елена Валерьевна Материнская. –Донецк, 2013.-403 стр.
 4. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2016. – B.319.
 5. Schalley A.C. Part-whole relations: (Электронный ресурс). Andrea Schalley.– Режим доступа: <http://ww10w.cbs.dk/content/download/98384/1272221/file/Part Whole Relations. pdf>